

Mavzu: Temuriylar davri tarixiga oid manbalar.

1. Ishdan maqsad:

- a) Temuriylar davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot.
- b) Olingan bilimlarni mustahkamlash.
- c) Vatanparvarlik ruhini oshirish.

2. Mashg'ulot uchun kerakli jihozlar:

- a) Temuriylar davriga oid adabiyotlar. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Ajoyib ul-maقدur fit-tarixi Tuvur”, Amir Temurning “Temur Tuziklari”.
- b) Daftar, ruchka
- c) Rangli qalam, rangli ruchka

3. Ishyuzasidan foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”
- 2) I.A.Karimov “Biz kelajakni o'z qo'limiz bilan quramiz” 7-jild Tosh. 1999
- 3) Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”
- 4) Ali Yazdiy yoki Shomiyning “Zafarnoma”si
- 5) Amir temurning “Temur Tuziklari”
- 6) A.Navoiyning “Tarixi mulki ajam”

4. Ish yuzasidan bajariladigan topshiriqlar

- 1) Temuriylar davridagi xalqaro munosabatlarni o'rganish.
- 2) Manbalarining ichki va tashqi tahlilini o'rganish.

5. Nazariy tushuncha

Tayanch iboralar: Temuriylar, tuzuk, suyurg'ol, xon, amir, podshoh.

Temuriylar va Amir Temur davlati mayday uluslarga bo'lingan holda idora qilingan. Masalan: Temur saltanati to'rt qismga bo'lib boshqarilgan bo'lib, bular Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seiston. Temur va Temuriylar davrida ham yer-suv hamda hunarmandchilik korxonalarining katta qismi podshoh xonadoni va badavlat kishilar qo'lida bo'lib, mehnatkash xalq ulning yerini ijaraga olib kun kechirar edi. Temur davrida davlat tepasida Chingiz avlodidan Suyuzg'atmish va Sulton Mahmudxon turdi. Keyincha xon tarkibi bekor qilindi, oiliy hukmdor o'zini podshoh deb e'lon qildi.

Manbaning o'rganishda talaba asosan tashqi va ichki tahliliga katta ahamiyat berishi kerak. Tashqi tahlilda kitobning siyohiga, bezaklariga, qog'ozlariga katta e'tibor berishi kerak. Yana manbaning muallifini, yaratilgan sanasini aniqlashdan iboratdir. Manbaning ichki tahlilida manbaning mazmunini o'rganishdir. Manbaning ichida keltirilgan ma'lumotlar tarixiy haqiqatga mos kelish-kelmasligini aniqlash, ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash ichki tahlilning asosiy maqsadidir.